

MARKAZIY OSIYODA BRONZA DAVRI MIGRATSİYALARI VA ETNOMADANIY JARAYONLAR TARIXINING O'RGANILISHIGA DOIR

*Kenjayeva Nafisa Turg'unboy qizi
Oriental universiteti 2-bosqich magistri*

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ilk yozma manbalarda tilga olingan Markaziy Osiyo qadimgi xalqlarining hududiy joylashish chegaralari muammosi sharqshunoslarning asarlarida dolzarb mavzuga aylandi (E. Zaxau, V. Geyger, V. Tomashek). Bu masala XX asr boshlarida ko'rib chiqilgan (I. Markvart, A. Xermann) va arxeologik ma'lumotlarni hisobga olgan holda, keyingi yillarda ham ilgari surilgan (M.M. Dyakonov, V.M. Masson, B.Y. Staviskiy). Mazkur muammo, ayniqsa o'tgan asrning 70-80-yillarida bir qator tadqiqotchilar (I.V. Pyankov, P. Bernar, G.P. Frankfor, E.V. Rtveladze, J.K. Garden va boshqalar) ishlarida bayon etildi. Mavzu tarixshunosligi I.V. Pyankov tomonidan yetarlicha yoritilgan. Tadqiqotchining ishlarida Baqtriya tarixi va tarixiy geografiyasiga mansub yunon-rim manbalarining tahlili katta o'rinnegallab, shuningdek, Sug'd va Baqtriyaning tog'lar va daryolar orqali o'tgan hududiy chegaralari haqidagi antik davr mualliflarining tasavvurlari ko'rib chiqildi [1].

XX asrning 70-80-yillarida Markaziy Osiyoda amalga oshirilgan keng qamrovli arxeologik tadqiqotlar natijasida shu mintaqaning tarixiy geografiyasiga oid mavjud ilmiy qarashlar tubdan o'zgardi.

1977-yili Markaziy Osiyoning etnik muammolari tarixiga bag'ishlangan xalqaro simpoziumidagi ko'rib chiqilgan masalalari orasida, mintqa xalqlarining etnogenezida mil. avv. II ming yillik muhim bosqich bo'lganligi va xususan, shu davrda zamonaviy xalqlarning shakllanishiga asos yaratilgan degan fikr ilk bor ilgari surilgan [2]. Anjuman ishtirokchilari ma'ruzalarida hind-eron qabilalarining yoyilish masalalari, bronza asrida Andronovo madaniyati dasht chorvadorlarning Markaziy Osiyoga migratsiyasi bilan bog'liq "ariylar muammosi"ning lingvistik (tilshunoslik), arxeologik va tarixiy-madaniy jihatlari ko'rib chiqilgan. Boshqa muqobil qarashlarga ko'ra, hind-eroniylar vatani Old Osiyoda joylashgan.

XX asr 90-yillari – XXI asr boshlarida bronza davri tarixi masalalarini yoritishda A.A. Asqarov, E.V. Rtveladze, A.S. Sagdullayev, T.Sh. Shirinov, Sh.B. Shaydullayev, N.A. Avanesova kabi tadqiqotchilarning ishlari muhim ahamiyatga ega [3]. Yangi ma'lumotlardan turli ilmiy muammolarni hal qilishda foydalilanilgan.

Shuningdek, T.Sh. Shirinov, Sh.B. Shaydullayev, M.X. Esanova, D.O. Karimova, A.Sh. Shaydullayev, J.E.T og'ayev, T.X. Norkobilov kabi tadqiqotchilarning dissertatsiya ishlarini alohida qayd etish joiz [4].

Yangi tadqiqotlar natijalari hammulliflikda yaratilgan monografiyalarda ham o'z aksini topgan [5]. Ularning mazmunida bronza davri yodgorliklarining geografiyasi va kartografiyasiga oid ma'lumotlar o'rinni olgan.

Shuningdek, bu borada K. Lamberg-Karlovski, F. Koll, F. Xibert, D. Xuff, N. Boroffka, J. Kiyerri va J. Luts kabi xorijlik mutaxassislarning ilmiy ishlari ham katta ahamiyatga ega [6].

Umuman olganda, Markaziy Osiyoda bronza davri migratsiyalari va etnomadaniy jarayonlar tarixini o'rganish masalasi hamisha mahalliy va xorijlik tarixchilarning diqqat markazida turgan. Kishilik jamiyatni taraqqiyotida burilish davri bo'lgan bronza davri tarixining bu masalalari madaniy taraqqiyot darajasi sabablari hamda omillarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Пьянков И.В. Бактрия в античной традиции (общие данные о стране: название и территория). – Душанбе: Дониш, 1982. – 62 с.

2. Этнические проблемы истории Центральной Азии в древности (II тысячелетие до н.э.). – М.: Наука, 1981. – С. 5.

3. Аскаров А.А., Ширинов Т.Ш. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии. – Самарканд: ИА АН РУз, 1993. – 162 с.; Асқаров А.А. Ўрта Осиё қадимги дунёсининг асосий хусусиятлари // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1994. – №6. – Б. 31-35.; Хуфф Д., Шайдуллаев Ш. Некоторые результаты работ узбекско-германской экспедиции на городище Джаркутан // ИМКУ. – Самарканд, 1999. Вып. 30. – С. 19-26; Ширинов Т.Ш. Средняя Азия во 2 тысячелетии до н.э. и протозороастранизм // ИМКУ. – Самарканд, 2000. Вып. 31. – С. 35-48; Шайдуллаев Ш.Б. Северная Бактрия в эпоху раннего железного века. – Ташкент, 2000. – 126 с.; Ртвеладзе Э.В. Цивилизации, государства, культуры Центральной Азии. – Ташкент, 2005. – 288 с.; Аванесова Н.А. Проявление степных традиций в Сапаллинской культуре // Цивилизации и культуры Центральной Азии в единстве и многообразии. – Ташкент, 2010. – С. 107-133; Аскаров А.А. К вопросу о взаимоотношении населения степей Евразии и Средней Азии в эпоху бронзы // Тюркская цивилизация и суверенный Казахстан. – Астана, 2011. – С. 110-114.

4. Ширинов Т.Ш. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии: Автореф. дисс. ... докт. истор. наук. – М.: Институт археологии РАН, 1993. – 49 с.; Эсанов М.Х. Авесто жамиятининг археологик материалларда акс этиши (Қадимги Бақтрия ва Марғиёнанинг бронза даври моддий маданият ёдгорликлари мисолида).: Тарих фан. номз. дисс. ... автореф. – Самарканд: Ўз РФА Археология институти, 2007. – 29 б.; Шайдуллаев Ш.Б. Ўзбекистон ҳудудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиши босқичлари (Бақтрия мисолида).: Тарих фан. доктор. дисс. ... автореф. – Самарқанд: ЎзФА Археология институти, 2009. – 50 б.; Каримова

Д.О. Шимолий Бақтрия аҳолисининг дағн маросимлари ва диний эътиқодлари (бронза даври моддий маданият ёдгорликлари мисолида).: Тарих фан. фалсафа доктори (PhD) дисс. ... автореф. – Тошкент: ЎзМУ, 2017. – 21 б.; Шайдуллаев А.Ш. Сополли маданиятининг глиптикаси ва сферагистикаси.: Тарих фан. фалсафа доктори (PhD) дисс. ... автореф. – Самарқанд: ЎзФА Археология институти, 2018. – 18 б.; Тоғаев Ж.Э. Бронза ва илк темир даври тарихий реконструкцияси масалалари (Жанубий Ўзбекистон мисолида). т.ф.ф.д. (PhD) дис. ... автореф. – Тошкент, 2021. – 50 б.; Норкобилов Т.Х. Жанубий Ўзбекистоннинг бронза ва илк темир даври тарихшунослиги. т.ф.ф.д. (PhD) дис. ... автореф. – Тошкент, 2022. – 58 б.

5. Боқиев А., Шайдуллаев А., Йўлдошева З. Окс цивилизацияси. – Тошкент: Янги нашр, 2015. – 175 б.; Бронза ва илк темир даври ёдгорликларининг географияси ва картографияси / Масъул муҳаррир А.С.Сагдуллаев. – Тошкент: Turon-Iqbol, 2019. – 112 б.; Sherabad oasis. Tracing Historical Landscape in Southern Uzbekistan / Editors L. Stančo, P.Tušlová. – Charles University: Karolinum Press, 2019. – 495 p.

6. Lamberg-Korlovskiy C.C. The Bronze Age of Bactria // Bactria. An Ancient Oasis Civilizations. Roma-Venezia, 1989. – Pp. 17-32; Kohl Ph.L. Central Asia. Palaeolithic Beginnings to Early Iron Age. – Paris, 1984. – Pp. 310; Hiebert F.T. Origins of the Bronze Age Oasis Civilization in Central Asia // American School of Prehistoric Research Bulleten. Vol. 42. – Cambridge, 1994. – Pp. 89-95; Huff D. Djarkutan Archaeological Research on Tepe VI // ИМКУ. Вып. 31. – Самарқанд, 2000. – С. 58-69; Boroffka N., Cierry J., Lutz J. Bronze Age tin from Central Asia // Late Prehistoric of the Eurasian Steppe. – Cambridge, 1999. – Pp. 14-29.